

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*70540202 – Matematik injiniring magistratura  
mutaxassisligining*

***MALAKA TALABI***

**Toshkent-2024**

**O‘zR O‘TFIV**  
**Buyruq № 277**  
**2024 yil “ 01 ” 08**

**ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “01” 08 dagi 277– sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</b>	<b>6</b>
<b>3.</b>	<b>Ilmiy faoliyat qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>8</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>9</b>
	<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	<b>10</b>
	<b>Kelishuv varag'i.....</b>	<b>11</b>



## **1. Umumiy tavsifi**

70540202 – Matematik injiniring magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistratlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 70540202 – Matematik injiniring magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistratlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur mutaxassislik bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

mutaxassislikning o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlari tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, matematik metodlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanadigan sohalarda ilmiy-tadqiqot faoliyati, jarayonlar va obyektlarning matematik modellaridan foydalanib turli masalalarni yechish va ularning dasturiy ta'minoti, tadqiqotlar olib borish, muhandislik va sanoatda qo'llaniladigan matematik usullarga oid kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

Davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalarida muhandis matematik.



Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari hamda oliy ta'lim muassasalari.

**1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

*ilmiy-tadqiqot;*

*pedagogik;*

*muhandislik;*

*tashkiliy-boshqaruv;*

*xizmat ko'rsatish;*

**1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

70540202 – Matematik injiniring mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bolishi lozim:

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

mamlakatimiz va chet ellarda hosil qilingan ilg'or tajribalarni inobatga olgan holda, mutaxassislikka oid yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar va ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirishi;

kasbiy faoliyatiga mos ilmiy adabiyotlarni, ilmiy tadqiqot loyihalarini va yangi ilmiy natijalarni o'rganish;

ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish;

ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish;

internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish;

o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.

**Pedagogik faoliyatda:**

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

**Muhandislik faoliyatida:**

sanoatda matematik usullarni qo‘llash;  
ishlab chiqarishda amaliy matematika usullarni qo‘llash;  
fizik va mexanik masalalarni yechish;  
tajriba natijalarini formulalarga o‘tkazish;  
ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

loyihalarni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, favqulodda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish, loyiha jamoasini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

ijrochilar va ilmiy tadqiqot jamoasi ishini tashkil qilish va boshqarish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish;

qabul qilinayotgan qarorlarni miqdoriy va sifat bo‘yicha baholash, ilmiy yutuqlarni qo‘llay olish;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilish.

**Turli xizmatlar ko‘rsatishda:**

mutaxassislik bo‘yicha muhandislik sohasida mavjud holatning analitik tahlillarini ishlab chiqish;

pullik ta‘lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha turli xizmatlarni ko‘rsatish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish;

ilmiy va amaliy faoliyatda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish;

mutaxassislik bo‘yicha mehnat bozorini tartibga solish va mehnatni tashkil qilishdagi mavjud holatning tahliliy sharhlarini ishlab chiqish.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.**

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi;

ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtira olishi, takomillashtirishi va o‘z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;

o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqishi va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;



o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;

shaxsning inson, jamiyat, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olishi;

o'zining individual bilimlariga tayangan holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;

fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqni aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyatga ega bo'lishi;

patent olish uchun me'yoriy ish hujjatlar tayyorlay olishi;

kasbiy faoliyatda o'zlashtirilgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida so'zlashuv darajasida egallagan bo'lishi;

axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;

o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;



bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish;

sodda jarayonlarning matematik modellarini qurish; ularning adekvatligini tekshirish;

differential tenglamalar bilan tasvirlanadigan matematik modellar uchun boshlang'ich va chegaraviy masalalar qo'yish; olingan natijalarni aniqlik darajasini aniqlash maqsadida tahlil qilish haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;

yuqori darajali tillarning imkoniyatlaridan foydalanish;

masalani yechish uchun yaroqli usullarni tanlash, masalani yechish algoritmini yaratish, natijalarini vizual taqdim etish;

ilmiy-texnikaviy masalalarni yechish uchun dasturiy vositalar va usullar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olish, masalani yechish usullarini qo'llash bo'yicha malakalariga ega bo'lishi kerak.

### **3. Ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar.**

**Ilmiy faoliyat** ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

*Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashga bo'lgan talablar:*

mustaqil tadqiqotchilik faolyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilish;

axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish;

talabalarga soha bo'yicha fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

*Ilmiy pedagogik ishlar:*

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirish;

o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

*Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish):*

Magistrlar tayyorlashda ilmiy amaliyot 4-semestrda o'tkaziladi. Bunda soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta'minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyotga yuborilgan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko'zda tutiladi.

**4. Fanlar katalogining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1080</b>	<b>36</b>	
1.01	ILTM1106	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	180	6	1
1.02	MFOM1106	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	180	6	1
1.03	IDT1106	Ilmiy dasturiy ta'minot	180	6	1
1.04	MMUK1106	Muhandis-matematiklar uchun ko'nikmalar	180	6	1
1.05	NS1206	Nochiziqli sistemalar	180	6	2
1.06	AMM1206	Amaliy matematika metodlari	180	6	2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>720</b>	<b>24</b>	<b>2,3</b>
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
	<b>Kvalifikatsiya</b>	<b>Muhandis matematik, pedagog-tadqiqotchi</b>			
<b>3.00</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
3.01		Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti	600	20	1,2,3,4
3.02		Ilmiy tadqiqot ishi, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish	1200	40	1,2,3,4
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---



### **Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, mutaxassislik, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, magistraturaning o'quv jarayoni, iqtisodiyot, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot jarayoni, tashkiliy-boshqaruv, xizmat ko'rsatish, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, vizual loyihalash, algoritmlar, hisoblash texnikasi, dasturiy ta'minot, modellashtirish, matematik model, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot usullari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.



Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:  
O‘zbekiston Milliy universiteti



Rektor  I.U. Madjidov  
2024-yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_  
M.O. \_\_\_\_\_  


KELISHILGAN:



O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  M. Boltabayev  
2024-yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_  
M.O. \_\_\_\_\_  




O‘zbekiston Respublikasi Fanlar  
Akademiyasi  
Matematika instituti

Direktor  Sh. Ayupov  
2024-yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_  
M.O. \_\_\_\_\_  


Samarqand davlat universiteti

Rektor  R. Xalmuradov  
2024-yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_  
M.O. \_\_\_\_\_  


Qarshi davlat universiteti

Rektor  D. Nabiyev ✓  
2024-yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_  
M.O. \_\_\_\_\_  




**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**  
**70540202-Matematik injiniring magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka**  
**talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari**  
**va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2024 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti direktori, akademik Sh.A.Ayupov, Samarqand davlat universiteti rektori prof. R.I.Xalmuradov, Qarshi davlat universiteti rektori prof. D.X.Nabiyev, O'zbekiston Milliy universiteti rektori prof. I.U.Madjidov birgalikda O'zMUDA ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70540202-Matematik injiniring magistratura mutaxassisligining Malaka talablari hamda o'quv rejasini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son Qarori, O'zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida”gi 259-sonli hamda O'zR OTFIVning 2024 yil 20 maydagi “O'z DSt 3557:2021 “Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O'zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**V.I.Romanovskiy nomidagi**  
**Matematika instituti direktori, akademik**

**Sh.Ayupov**

**Samarqand davlat universiteti**  
**rektori, prof.**

**R.Xalmuradov**

**Qarshi davlat universiteti**  
**rektori, prof.**

**D.Nabiyev**

**O'zbekiston Milliy universiteti**  
**rektori, prof.**

**I.Madjidov**